

SMTI direktori Vashingtonda Atlantika Kengashida nutq so'zladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti (SMTI) direktori AQSh poytaxtida Qo'shma Shtatlardagi yetakchi tahlil markazlaridan biri bo'lgan Atlantika Kengashida nutq so'zladi.



Tadbir Oq uyda bo'lib o'tgan C5+1 formatidagi "AQSH - Markaziy Osiyo" sammiti yakunlariga bag'ishlandi.

Muhokamada AQSH ma'muriyati va Kongressi vakillari, shuningdek, Amerika ekspert va tahliliy hamjamiyatining taniqli vakillari ishtirok etdi.

Kongress a'zosi Dina Titus ishtirokchilarga tabrik so'zi bilan murojaat qildi. Tadbirni Atlantika Kengashining Yevrosiyo markazi katta direktori va AQShning O'zbekiston va Ukrainadagi sobiq elchisi Jon Xerbst boshqardi.

O'zbekiston tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev va SMTI direktori Eldor Aripov ishtirok etdi.



SMTI direktori o'z nutqida sammit yangi siyosiy va iqtisodiy voqelik - Yangi Markaziy Osiyo paydo bo'lganining e'tirofi ekanligini ta'kidladi.

"Ushbu sammit shunchaki muloqotning navbatdagi raundi emas. Bu Qo'shma Shtatlar tomonidan mintaqaviy konsolidatsiya jarayonini qo'llab-quvvatlash, Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqilligini mustahkamlash, shuningdek, yangi voqelikni - yanada jipslashgan va dunyoning yetakchi davlatlari uchun samarali hamkor bo'la oladigan Yangi Markaziy Osiyoning paydo bo'lishini e'tirof etishning bir ko'rinishi bo'ldi," - dedi SMTI direktori.

Uning ta'kidlashicha, so'nggi yillarda mintaq postsovet hududidagi eng chuqur o'zgarishlardan birini boshdan kechirdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan ochiqlik va yaxshi qo'shnichilik siyosati mintaq mamlakatlari o'rtasida ishonch va o'zaro qo'llab-quvvatlash muhitini shakllantirishga zamin yaratdi.

"Avvalgi raqobat barqaror rivojlanish faqat hamkorlik orqali mumkin degan tushuncha bilan almashtirildi. Bugungi kunda mintaq bir ovozdan gapiradi va umumiy muammolarni hal qilishda yetuklik va mas'uliyatni namoyish etadi", dedi SMTI rahbari.

Mintaqaviy savdo besh barobar, o'zaro investitsiyalar ikki barobar o'sgani, hatto pandemiya davrida ham Markaziy Osiyo mamlakatlari chegaralari hayotiy muhim ta'minotlar uchun ochiq qolgani kollektiv barqarorlik namunasi bo'lganini qayd etdi.

SMTI direktorining so'zlariga ko'ra, ushbu sammit Markaziy Osiyoning Yevroosiyoda yangi geoiqtisodiy dinamikaning rivojlanayotgan markazi sifatida tan olinishini anglatadi.

Bu mintaq strategik joylashuvi, resurslari va o'sib borayotgan salohiyati tufayli yetakchi davlatlarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda.

"Tenglik, ochiqlik va manfaatlar muvozanati tamoyillariga asoslangan o'zaro ta'sirning yangi arxitekturasida asta-sekin shakllanmoqda. Markaziy Osiyo yirik o'yinchilar o'rtasidagi raqobat emas, balki hamkorlik makoni bo'lib qolishi kerak", deb ta'kidladi SMTI rahbari.

Uning qayd etishicha, Qo'shma Shtatlar mintaqaning strategik avtonomiyasi va texnologik rivojlanishiga ko'maklashish orqali uning ochiqligi va barqarorligini saqlashda muhim rol o'ynashi mumkin.

Sheriklikning eng muhim yo'nalishi sifatida Qo'shma Shtatlar bilan texnologik va ta'lim sohasidagi hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

"Gap nafaqat eng yangi texnologiyalardan foydalanish, balki inson kapitaliga - yoshlarimizning bilimi, ko'nikmalari va kasbiga sarmoya kiritish haqida bormoqda," - dedi SMTI rahbari.

So'zining yakunida SMTI direktori Markaziy Osiyo o'z ovozi xalqaro maydonda tobora balandroq yangrayotganini, yangi bosqichga qadam qo'yayotganini ta'kidladi.

"AQSH bilan hamkorligimiz kimgadir qarshi emas, balki - taraqqiyot, barqarorlik va farovonlik uchun qurilishi kerak. Bugun bizda umumiy qarashni umumiy yutuqqa aylantirish uchun tarixiy imkoniyat bor," - deya xulosa qildi u.



Tashrif davomida Eldor Aripov AQSh Tashqi siyosat kengashi qoshidagi Markaziy Osiyo-Kavkaz instituti raisi Frederik Starr, Kaspiy siyosat markazi ijrochi direktori Efgan Nifti va Atlantika kengashining Yevrosiyo markazi katta direktori Jon Xerbst bilan alohida uchrashuvlar o'tkazdi.

Muzokaralar davomida tomonlar yaqin kelajakdagi istiqbolli yo'nalishlar va aniq hamkorlik loyihalarini muhokama qilishdi.

